



## BIRINCHI RENESSANS DAVRIDA SHARQ UYG‘ONISH DAVRI ALLOMALARI IJTIMOY-SIYOSIY QARASHLARI VA ULARNING AHAMIYATI

*Shokirova Mubina Nabijon qizi,  
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,  
Xalqaro Jurnalistika fakulteti talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada IX-XII asr Sharq uyg‘onish davri mutafakkirlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari va ularning bugungi kundagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Shuningdek, uyg‘onish davri allomalarining davlat boshqaruvi va siyosati, jamiyat haq-huquqlari, inson kamoloti va ijtimoiy masalalariga oid ilmiy meroslari tahlil qilinishi bilan bir qatorda ushbu g‘oya va fikrlardan hozirgi zamonamizda oqilona foydalish kerak ekanligi bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** jamiyat, davlat boshqaruvi, inson mohiyati, ideal davlat, tabiat, ijtimoiy hayot, adolat, xulq-atvor.

**Abstract:** This article talks about the socio-political views of the thinkers of the Eastern Renaissance of the IX-XII centuries and their importance today. Also, along with the analysis of the scientific heritage of Renaissance scholars on state management and politics, society's rights, human development and social issues, it is stated that these ideas and thoughts should be used wisely in our time.

**Key words:** society, state administration, human nature, ideal state, nature, social life, justice, behavior.

**Аннотация:** В данной статье говорится о общественно-политических взглядах мыслителей Восточного Возрождения IX-XII веков и их значении в наши дни. Также, наряду с анализом научного наследия ученых эпохи Возрождения по вопросам государственного управления и политики, прав общества, человеческого развития и социальных проблем, утверждается, что эти идеи и мысли следует разумно использовать в наше время.

**Ключевые слова:** общество, государственное управление, человеческая природа, идеальное государство, природа, общественная жизнь, справедливость, поведение.

Tarixdan shu narsa ayonki, insoniyat tarixida ijtimoiy taraqqiyot barqaror ravishda bo‘lavermaydi. Insoniyat umumiy rivojlanish bilan bir qatorda turli xil to‘siqlarni, tanazzul va tangliklarni o‘z boshidan kechirgan. So‘ngra barchasini bartaraf etgan holda, o‘z moddiy va ma‘naviy darajasini qayta tiklagan va yuksak taraqqiyot sari intilgan. Fanda bunday intellektual va madaniy rivojlanish Renessans deb ataladi. Uyg‘onish davri (Renessans) atamasi dastlab Italiyada XIV XVI asrlarda insoniyatning madaniy-ma‘naviy yuksalishi davrida paydo bo‘lgan. Ma‘lumki, ilk uyg‘onish davri Markaziy Osiyoda IX-XII asrlarga to‘g‘ri keladi. Sharqda VIII asrda yuzaga kelgan ushbu uyg‘onish davri mog‘ul istilosi sababli XII asrda o‘z payoniga yetgan. Ammo bir necha asrlar o‘tishi bilan Amir Temur saltanatida XIV-XV asrlarda Sharq renessansi yangi ravnaq bosqichida davom etgan. Sharq uyg‘onish davrining buyuk siymolari hisoblangan Abu Nasr Farobiy, Aby Rayhon

Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug‘bek, Ibn Xaldun, Nizomulmulk va boshqa ko‘plab allomalarimiz jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shganlar. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respubikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish lozim: “Tadqiqotchi-olimlarning fikricha, Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX-XII va XIV-XV asrlarda bamisoli po‘rtanadek otilib chiqqan ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan Sharq uyg‘onish davri – Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan”[1].

Darhaqiqat, Sharq uyg‘onish mutafakkirlari olib borgan ilmiy izlanishlar mahsuli bo‘lgan ilmiy yutuqlar va buyuk izlanishlar nafaqat sharq olamida nafaqat



dunyoning qolgan boshqa mintaqalarida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga turtki bo'lgan.

Musulmon Sharqida Arastudan keyin "Ikkinchi muallim" unvoniga muyassar bo'lgan mashhur faylasuf, mutafakkir va qomusiy olim Abu Nasr Farobiy hisoblanadi. Farobiy butun umri davomida ko'plab fanlar doirasida o'z faoliyatini olib borgan ulug' mutafakkirdir. Xususan, Farobiy falsafa, tibbiyot, riyozat, mantiq, matematika, siyosat va shu kabi bir qator fanlarda chuqur izlanish va tadqiqotlar olib borgan. Olimning "Jamiyatni o'rganish haqida", "Urush va tinch totuv yashash haqida", "Qonunlar haqida kitob", "Masalalar mohiyati", "Falsafaning ma'nosi va kelib chiqishi", "Baxtga erishish haqida risola", "Fozil odamlar shahri" va "Fazilatli xulqlar" kabi bir qator asarlari insonning ma'naviy kamoloti, jamiyatning huquq va burchlari, adolati hukmronlik qilish, o'sha davrning falsafiy qarashlari bilan bir qatorda, siyosatga doir mavzularni o'z ichiga olgan. Abu Nasr Farobiyning yuqorida sanab o'tilgan asarlari orasida "Fozil odamlar shahri" nomli asari Yaqin, O'rta va Uzoq Sharqda azaldan sevib o'qib kelinayotgan kitob hisoblanadi. Ushbu asarda jamiyatdagi ijtimoiy axloqiy munosabatlar, ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalari, adolati jamiyatga erishish yo'llari, va shuningdek, oqilona davlat siyosati olib borish kabi muhim masala va maslahatlar o'rin olgan. Qomusiy olim o'rta asrlar sharoitida jamiyat tabiiy ravishda kelib chiqadi, inson faqat boshqalar yordamida hayot qiyinchiliklariga qarshi kurasha olishi mumkin emas degan fikrni asoslab beradi. "Har bir inson, –deydi Farobiy – o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerni aholi yashaydigan qismiga o'rmashdilar"[2].

Farobiyning e'tiborga sazovor fikrlaridan biri jamiyat taraqqiyotida geografik muhitning o'rni masalasidir. Faylasufning fikricha, geografik muhit, ya'ni, kishilarning muayyan

FAN, JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR  
Volume 1 Issue 10 April 2024

hududda istiqomat qilishi ularning turmush tarzi, urf-odatlari, axloqi, xulq-odobiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi va insonlarning jamoaga birlashuviga yordam beradi. U ideal jamiyat to'g'risidagi ta'limotida odamlarni turli guruhlariga ajratib chiqadi. Bunda Farobiy insonlarni qaysi dinga e'tiqod qilishiga, irqiga qarab emas, balki aqliy qobiliyati, bilimi va zehni, ilm-fanga qiziqishini inobatga oladi. Shu bilan birgalikda, Farobiy shahar-davlatlarni fozil va johilga ajratadi. Fozil shahar o'z xalqini baxt-saodatga eltishi, uning boshlig'i esa adolati, yuksak ahloqli va ma'rifayli, o'ziga butun ijobiy hislatlarni to'plagan bo'lishi lozim. Lekin, Farobiyning aytishicha, shunday shahar yoki mamlakatlar bo'ladiki, ularning aholisi nafsga berilgan, butun fikri-zikri boylik to'plash bo'ladi. Farobiy bunday shaharlarni johil shaharlar deb ataydi. Faylasufning fikricha, haqiqiy baxtga erishish uchun harakat qiluvchi, o'zaro yordam qiluvchi, xalqni birlashtirgan shahar – fozil shahar hisoblanadi. Baxtga erishi maqsadida o'zaro yordam bergan va birlashgan kishilar fazilatli jamoa bo'ladi.

Ulug' gumanist, insonparvar faylasuf sifatida Farobiy insonlarning ya'ni jamiyatning odob-axloqi va tarbiyasini ham muhim deb hisoblaydi. U inson qadr-qimmatini kamsituvchi va o'zga mamlakatalarni bosib olishga asoslangan jamiyatga qarshi chiqadi. Mutafakkir odamlarni tinch-totuv va o'zaro hamkorlikda yashashga, insonparvar bo'lishga da'vat etadi. "Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir, shuning uchun odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari uchun o'zaro tinchlikda yashashlari lozim"[3], deydi mutafakkir.

Bundan ko'rinib turibdiki, jamiyatning tinch-totuv yashashligi uchun eng dastlabki o'rinda, insonlarning insoniyligini belgilab beruvchi belgi bu uning tarbiyasi hisoblanadi. Darhaqiqat, jamiyat tarkibidagi odamlar qanchalik chiroyli xulq-atvorli bo'lsa, ularning o'rtasida ahillik, hamkorlik va tinch-totuvlik shunchalik ko'p bo'ladi.

Abu Nasr Farobiy yuqorida ta'kidlaganimizdek, davlat boshqaruvi va uning siyosatiga doir masalalarni tubdan o'rgangan qomusiy olimdir. Uning fikricha, davlatni boshqarish ikki xil bo'lishi, ularning biri





haqiqatdan ham o'z fuqarolarini chinakam insoniy baxt-saodatga kelishi, ikkinchisi esa yolg'on va soxta baxtga olib kelishi mumkin. Davlatni boshqarish san'ati boshqarishning nazariy qonunlarini bilishni va ayni vaqtda davlatni boshqarishda amaliy tajribaga ega bo'lishni talab etadi[4]. Bu bilan alloma nazariy siyosiy bilimlar bilan amaliy siyosiy faoliyatni uzviy bog'lagan holda davlatni boshqarish zarurligi haqida o'z qarashlarini bayon etadi.

Alloma shu bilan birgalikda o'zining "Baxt-saodatga erishuv yo'llar haqida risola" asarida ham davlat boshqaruvi va rahbarlik faoliyatiga oid o'z qarashlarini bayon etgan. Farobiyning fikricha, "Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo'lga kiritiladi". Mutafakkir davlatni har tomonlama yetuk, yetuk hislatlarga ega bo'lgan, xalq tomonidan saylangan kishilar boshqarishi lozimligini aytadi. Davlatni yetuk kishilar boshqarsagina fozil jamiyat, fozil shahar, fozil mamlakat qaror topadi. Fozil jamiyat, fozil davlat shunday bo'ladiki, bu jamiyatning har bir a'zosi ilm-fanni egallash bilan shug'ullanadi[5]. Bu bilan olim davlat boshqaruvida har tomonlama komillikka intilgan, salohiyatli shaxsning o'rni muhimligi va aynan shunday shaxsgina jamiyatni ravnaq topishiga sababchi bo'lishiga ishora qilgan.

Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridagi ba'zi bir falasifiy qarashlariga to'xtaladigan bo'lsak, faylasuf insonning o'tkinchi dunyodagi faoliyatiga shunday ta'rif beradi. "Agar inson yaratilishining maqsadi bo'lmish barkamollik insonga faqat tabiatan xos bo'lganda va faqat yaxshi niyat bilan amalga oshirilganda edi, u holda barkamollikka yetishtiruvchi faoliyat va hayot tarsi faqat chin insoniy fazilat, ezgu ishlar va faoliyatlar, go'zal hayot tarsi bo'lur edi. Ammo insonni ushbu barkamollikda mahrum etdaigan holatlar ham bor, ular insoniy bo'lmagan faoliyatlar va hayot tarsi bo'lib, ular maraz, xunuk va yomon ishlar hamda yomon faoliyatlardir. Biz ulardan qaysi birini qabul etishimiz va qaysi birlaridan o'zimizni olib qochishimiz kerakligini bilib olishimiz zarur bo'ladi"[6]. Farobiyning ushbu qarashlari, insoniyatning foniy dunyodagi yaxshi yoki yomon hayot yo'lini tanlash o'zining qo'lida ekanligiga va imkon qadar oqni qoradan ajrata

olishni bilishga da'vat qilayotganligiga guvohi bo'lishimiz mumkin.

Darhaqiqat, hozirgi zamonaviy dunyoda insoniyat ongiga ta'sir etuvchi kuchlar ko'p kuzatilmoqda. Bunday kuchlardan himoyalani uchun avvalo inson o'zining tafakkuridan kelib chiqib ish tutadi. Shunday ekan, Farobiy bobomizning inson tarbiyasi va uning dunyodagi faoliyatiga oid fikr va qarashlari mana necha asrlar o'tibdiki, hozirgi zamonamizda o'z mohiyatini to'laligicha saqlab kelayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Uyg'onish davrining yana bir ulug' mutafakkiri, deyarli barcha fan sohalarida ijod etgan qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniy. Beruniy ko'plab ilm-fan sohalariga ixtisoslashgan va islom olamining ilm-fan jihatdan eng samarali davrida yashadi. Olim geologiya, mineralogiya, tarix, fizika, matematika, astronomiya, rioziyot va falsafa kabi ko'plab sohalarida ijod qilib, u o'zidan o'xshashi yo'q asarlar yozib qoldirgan. Xususan, Beruniy yozib qoldirgan "Hindiston", "Geodeziya", "Mineralogiya", "Qadimgi xalqdan qolgan yodgorliklar" kabi asarlarida ham ijtimoiy-siyosiy, falsafiy va tarbiyaviy fikrlar va qarashlar keng o'rin olgan.

Beruniyga ko'ra, inson qiyofasi tabiat ta'sirining natijasidir. Uning ichki qiyofasiga kelsak, uni inson cheksiz sa'y-harakatlar oqibatida tubdan o'zgartirishi mumkin. Har bir kishi o'z xulq-atvorining sohibidir. Jamiyat tadrijiy o'zgarishlar orqali rivojlanib boradi. Adolat, fuqaro uchun g'amxo'rlik, zulmni bartaraf etish, jamiyatni aql va adolat tug'i ostida boshqarish mutaffakirning idealidir[7].

Shu jumladan, biz Beruniyning falsafiy va ijtimoiy qarashlarini ko'rishimiz mumkin. Dastlab, mutaffakir insonning ichki qiyofasi deb, uning fe'l-atvori va tarbiyasini nazarda tutayotgani barchamizga ayon. Ya'ni insonning fe'l-atvori o'zgaruvchandir va bu o'zgarishlarga asosiy sababchi ham inson ekanligini olim ta'kidlamogda. Bundan tashqari, davlat boshqaruvida adolat, fuqarolarning huquq va erkinliklari bo'lgan, shuningdek, uzluksiz islohot va o'zgarishlar ro'y beradigan jamiyatni Beruniy o'z tafakkurida haqiqiy ideal jamiyat ko'rinishi deb biladi.



Shubha yo‘qki, Beruniy ham Farobiy asarlaridan va unda ilgari surilgan g‘oyalardan yaxshi xabardor bo‘lgan. Farobiyning jamiyat va uni boshqarish haqidagi g‘oyalari rivojlantirgan desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Beruniyning fikricha, odamlar o‘rtasida ijtimoiy shartnomani amalga oshirish maqsadida jamiyatda hukmdor mansab joriy etilgandir. Beruniy tabiiy va ixtiyoriy ravishda qaror topgan itoatkorlik asta-sekin qo‘rqitish va zo‘rlikka asoslangan bo‘ysundirishga o‘tganligini tarixiy misollar yordamida bayon etadi[8].

Mutafakkirning insoniyat jamiyatining vujudga kelishi haqidagi fikrlari e‘tiborga loyiqdir. Shu bilan birgalikda, Beruniyning jamiyat, shahar, boshqarish to‘g‘risidagi qarashlari to‘laqonli inson maxluqotiga bog‘liq deb hisoblaydi. Olim insonning olam va jamiyatdagi o‘rniga, roliga alohida e‘tibor beradi. Jamiyat odamlarning birgalikda faoliyat ko‘rsatish ehtiyojidan vujudga kelgan ekan, ular o‘zaro yordam asosida faoliyat ko‘rsatishlari kerak degan g‘oyani ilgari suradi. Mutafakkir shu yo‘sinda, jamiyatda qaror topgan turli qoida va tartib-intizom va nizom odamlarning o‘zaro kelishuvlari natijasida paydo bo‘ladi deb hisoblaydi. Umuman olganda, qomusiy olimning ushbu fikr va mulohazalari bugungi zamonaviy demokratik davlatlarning belgilaridan deb hisoblashimiz mumkin. Chunki, demokratik davlatlarda ma‘lum bir qonun va qoidalar albatta xalq muhokamasiga tashlanib, ularning o‘zaro kelishuvidan kelib chiqib qonun va qoidalar qabul qilinadi, ijrosi ta‘minlanadi.

Mutafakkirning jamiyat va uni boshqarish haqida quyidagicha o‘z qarashlarini bayon etadi. Beruniy: “Jamiyatning har bir ongli a‘zosi o‘z kasb-kori va ixtisosidan qat‘iy nazar, jamiyat to‘g‘risidagi bilimlarni chuqur egallash orqaligina tevarak-atrofdan ro‘y berayotgan ijtimoiy hodisa va jarayonlarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini bilish, ularni boshqarish qobiliyatiga ega bo‘ladi”, degan xulosaga keladi. Shuningdek, u: “Jamiyat to‘g‘risidagi bilimlarga barcha xalqlarga xos ijtimoiy-siyosiy va axloqiy hodisalarning umumiy asosini aniqlashga, ya‘ni ijtimoiy-siyosiy hayot barqarorligining fundamental asoslarini belgilashga, jamiyatni yaxlit holda saqlab qolishga imkon beradi”, deb ta‘kidlaydi[9].

Beruniyning bu qarashlari Abu Nasr Forobiyning jamiyat to‘g‘risidagi g‘oyalari ham birmuncha to‘g‘ri keladi.

Abu Rayhon Beruniyning davlat boshqaruvi haqidagi qarashlarida o‘z davrining mamlakat taxt vorisiylik masalalarini ham e‘tibordan chetda qoldirmaganini quyidagi uning fikrlaridan ham bilishimiz mumkin. “Tabiat jihatidan boshqarish va siyosat ishiga qiziquvchi, boshliq bo‘lishga fazilati va kuchi bilan haqli, fikrda sabotli, davlatni o‘zidan keyingilarga qoldirib, ularning o‘z ota-bobolariga qarshi bo‘lmasligini maqsad qilib olgan kishi bergan har bir buyruq, buyurilgan kishi oldida, turg‘un tog‘lar singari mahkam bo‘lib, bu buyruq ko‘p vaqtlar va uzun zamonlar o‘tsa ham, keyingilar ham bo‘ysunadi[10]. Ya‘ni, Beruniyning davlat boshqaruviga doir ushbu fikr va mulohazalari haligacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganini guvohimiz. Shu bilan birga, “Agar podshoh buyruqni berishda milliy va diniy biron tomonga asoslansa, bir qorindan bir vaqtda ikki bola tug‘ilganidek, podshohlik va din ishi birlashib buyruq to‘liq va tugal bo‘ladi, to‘liqlikning narigi tomonida ko‘zda tutiladigan g‘oya va maqsad yo‘q”[11]. Bundan ko‘rinadiki, davlatni adolatli boshqarishda din va milliy qonunlarni o‘zaro uyg‘unligidan foydalanish eng ma‘qbuli hisoblanadi.

Beruniyning ijtimoiy-siyosiy fikrlarini o‘rganar ekanmiz, olimning qarashlari o‘z davrining to‘laqonli mohiyatini ochib bera oladigan qimmatli meros deya xulosaga kelishimiz mumkin.

Abu Bakr al-Xorazmiy dunyo ilm-faniga ulkan hissa qo‘shgan alloma, algebra fani va algoritm atamalarining “otasi”, buyuk matematik, tarixchi, falakshunos, geograf, faylasuf sifatida butun dunyoga mashhurdir. Al-Xorazmiyning inson va tabiat, ijtimoiy hayot asoslari, shuningdek, davlat siyosati kabi sohalarni qamrab olgan asarlari ko‘plab topiladi. Xorazmiyning risolalarining aksariyati ilm-fan, adolat, himmat, do‘stlik, insonparvarlik kabi muhim ijtimoiy masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, qo‘llanilgan iboralar allaqachon xalq hikmatli so‘zlariga aylanib bo‘lgan.

Mutafakkirning adib olam haqidagi fikr va ta‘riflariga yuzlanadigan bo‘lsak, u dunyoni sehrli kelinga o‘xshatadi, ushbu kelinning





eshigidan sovcilar arimaydi. Dunyo kelini hech kimga tutqich bermaydidiki, uning ishi doimo zidlikdir: teskari aylanadi, har damda sotqinlik qiladi, hoinlik qilgandan keyin vafo qiladi, haqorat qilgandan keyin taqdirlaydi, boylikdan keyin faqirlik sari yo'laydi. Dunyo sovcilarni sehrlab qo'ygan kelinga o'xshaydi. Sovchilar (odamlar) kelinga yetisha olmasliklariga ko'zi yetsa-da, ammo, umid uchqunlari parvonadek o'tga tashlayveradi. Dunyo – go'yo jodugar kelin. Hayot esa, xavf-xatar o'yinidir[12]. Al-Xorazmiyning ushbu o'xshatishi chinakam dunyoning foniy ekanligini, foniy dunyoda esa pastu baland, oq va qora kunlar bo'lishini bot-bot ta'kidlamog'qa. Ammo, odamlar esa ushbu o'tkinchi dunyodan hech ko'ngil uzolmasliklarini ham, ular qancha parvonadek chiranishmasin, baribir bir kun jodugar kelin (dunyo) ularni o'z bag'ridan itarishi muqarrarligini ham ma'lum qilmoqda.

Abu Mansur as-Saolibiyning "Yatimat ad-daxr" asarida Al-Xorazmiyning ijodidan keltirilgan namunalarni kuzatar ekanmiz, inson va uning fazilatlariga oid olimning qimmatli fikrlarga ko'zimiz tushadi. Xorazmiyning fikricha, odamlardan shundayi borki, oliyanob fazilatlarini tufayli olamni go'zal qiladi, yana odamlardan shundayi borki, salbiy illatlarini tufayli go'zal hayotni sarobga aylantiradi va o'zining ham insoniy mohiyatini yo'qotadi. Mutafakkir mard, insoniy fazilatlariga ega er kishilarni qal'alarga o'xshatadi. Qal'alar mamlakat hayotini tashqi kuchlardan himoya qiladi, jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Qal'alarni ehson bino qilsa, yo'qlik vayron qiladi, xayr-sahovat va farovonlik ularning samarasidan foydalanishga olib keladi, kibrlik va jabru-jafo esa u samaralarni uzib tashlaydi, go'yoki "kishilar bo'lmasa, mol-mulk bo'lmaydi, urush tugasa, sulh bo'lmaydi, xavf-xatar qili ustida turilmasa, hayot bo'lmaydi"[13]. Shu tariqa, alloma inson qanday fazilatlarini o'zida mujassam etishi kerakligi haqida o'z qarashlarini bayon etgan.

Abu Bakr al-Xorazmiy o'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ifodalashda hajv usulidan keng foydalangan alloma hisoblanadi. U o'z davrining podshohligini tanqid qiladi, amr va vazirlarni maqtash bilan birga, ularning illatlarini kulgu ostiga oladi. Podshohlik – xaridorga serob

bir mol deya ta'rif beradi. Hokimiyat shunday siyosiy kuchdirki, u boshqaruvchisi tufayli ulug'lanadi yoki qoralanadi. U shunday yozadi: "Odamlardan shundaylari borki, (hokimiyatni) boshqarganda, nafsi uni amaldan tushuradi, odamlardan shundayi borki, fazilati yana uni o'rniga o'tkazadi"[14]. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, davlat hokimiyati ustida o'tirgan shaxsning xatti-harakati, fazilati va o'zini tutishi nafaqat o'zining balki, butun bir u boshqarayotgan hokimiyat haqida ham yo'ijobiy yo'inki salbiy tushuncha berishi mumkin. Qolaversa, boshqaruvdagi shaxs o'zining nafsi tufayli pastga qulashi, fazilati sababli esa o'z o'rnini egallashga sabab bo'lishi mumkinligini Xorazmiyning qarashlaridan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkin.

Yana bir buyuk alloma, tabib, faylasuf va "Shayx-ur-ra'is" ("Olimlar boshlig'i") nomi bilan butun Sharqda mashhurlikka erishgan mutafakkir Abu Ali ibn Abdulloh ibn Sinodir. Ibn Sinoning ilmiy qiziqishlari nihoyatda keng bo'lganligi sababli u falsafa, tibbiyot, mantiq, axloq-odob, musiqa, huquqshunoslik, matematika, fizika va bir qator boshqa sohalarga taaluqli ko'plab ilmiy asarlar dunyoga keltirdi. Uning falsafa, tabiatshunoslik, mantiq va boshqa sohalarga doir asarlaridan, ayniqsa, "Kitob ash-shifo", "Bilimlar kitobi", "Tib qonunlari", "Najot kitobi", "Donishnoma" va "Tabiat durdonasi" kabi kitoblari juda mashhurdir. Qomusiy olim o'z asarlarida ilm va axloq-odob uyg'unligi, inson kamoloti, baxt-saodat, ijtimoiy adolat, kishilarning o'zaro hamkorligi, hukmdorning burchi to'g'risidagi qiziqarli g'oyalarni ilgari surgan. Uning ta'kidlashicha, barcha ham bir xil ijtimoiy mavqega ega bo'la olmaydi. Aslida ular uchun sharoit yaratib berilishi lozim. Barchaning boy va mansabdor bo'lishi yoki hammaning qashshoq bo'lishi jamiyatning tanazzuli va inqirozidir. Lekin inson o'zgalarga mehr-oqibatli, g'amxo'r bo'lmog'i, kerakli vaqtda saxovat va muruvvat qo'lini nochorlarga uzatish zaruridir. Shuningdek, Ibn Sinoning inson va uning kamoloti haqidagi qarashlari ham e'tiborga molikdir. Uning fikricha, inson tug'ilishidan boshlab axloqli yoki axloqsiz bo'lavermaydi. U hayotda shaxsiy va o'zgalar tajribasi, ajdodlar an'analari, ta'lim-tarbiya natijasida shakllanadi va muayyan ijtimoiy mavqega erishadi.



Ibn Sinoning ijtimoiy-siyosiy masalalar, davlat, jamiyatning tuzilishi haqidagi o‘rinli qarashlari o‘zining asl mohiyatini hali hamon yo‘qotgan emas. Oliming jamiyatda kishilar o‘zaro bir-biriga yordam berishlari kerakligini, jamiyat kishilarning o‘zaro kelishuvlari asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini va albatta jamiya ta‘zolarining hammasi bu qonunlarga itoat etishlari zarurligini ta‘kidlaydi[15].

Ibn Sinoning odob-axloq va xulq masalalarini doimo ustuvor mavzu sifatida o‘z asarlarida yoritadi. Xususan, uning axloq masalalasi va uning ahamiyati haqidagi o‘rinli fikrlari diqqatga sazovordir. Axloqiy ravnaq inson zotigagina xos jarayondir, chunki aql, tafakkurning buyuk quvvatiga tayangan holda haqiqat yolg‘onning chegarasini aniqlabgina qolmasdan, balki do‘stni dushmandan ajrata oladi. Bu borada narsa-ashyolarning ichki mohiyat-mazmunini kashf etsih uchun intellektual yetuklik zarur bo‘lsa, axloqiy ravnaq va yuksalish uchun esa buning o‘zi yetarli emas. Ilm bilan xulq-atvor, sa‘y-harakatlarning o‘zaro birligi insonni donishmandlik, komil inson darajasiga eltadi. Bunga hech qanday shubxa bo‘lishi mumkin emas, chunki “go‘zallikka va axloqiy kamolotga intilish – inson zotiga xos xususiyatdir”[16].

Darhaqiqat, insonning inson bo‘lib shakllanishida odob-axloq va ta‘lim-tarbiyaning o‘rni beqiyosdir. Ibn Sino ta‘riflaganidek, inson yetuklik darajasiga chiqish uchun ilmning o‘zigagina kamlik qiladi. Qachonki, ham ilm va xulq-atvor uyg‘unlashuvida inson shaxsiy rivojlana boshlasa, shundagina komillik sari intilishi zoye ketmaydi.

Mutafakkirning siyosat sohasida doir qilgan izlanishlari samarasiz kemagan. U davlat boshliqlarining ish yuritish, shaxsiy sifatleri haqida fikrlar berib o‘tgan. Ayrim hukmdorlar chaqimchi, g‘iybatchi, laganbardor mulozimlarni o‘z atrofiga to‘plab oladilar, to‘g‘ri so‘z va haqiqatni yoqirmaydilar. Bunday ahvolga zid ravishda Ibn Sino odil va oqil hukmdorlar bo‘lishini orzu qildi, hukmdorlar atrofiga sadoqatli va aqli kishilarning to‘planishiga va ularning hukmdorga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishiga, yaxshi maslahatlar berishiga umid bog‘lagan.

Ibn Sinoning siyosat, jamiyat, falsafa, psixologiya va bir qator sohalardagi tadqiqot va izlanishlari hozirgacha o‘z samarasini berib kelmoqda desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki bu asarlar va manbaalarni haligacha zamonaviy sohalar o‘qitishda nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Sharq uyg‘onish allomalarining ijtimoiy, siyosiy va falsafiy qarashlarini o‘rgangan holda shularni xulosa qilishimiz mumkinki, mutafakkir olimlarimizning o‘z davri qarashlari hozirgacha mazmun-mohiyatini va qadr-qimmatini yo‘qotgan emas. Xususan, Muso al-Xorazmiy va Ahmad al-Farg‘oniy tadqiqotlarida ilgari surilgan tabiiy-ilmiy g‘oyalar, Farobiy, Beruniy va Ibn Sinoning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari, fandagi yangi yo‘nalishlar birinchi galda musulmon Sharqi qolaversa, butun jahon tabiiy-ilmiy va falsafiy tafakkurining ravnaqiga hayotbaxsh ta‘sir o‘tkazib kelmoqda. Shu o‘rinda birinchi Prezidentimizning bir jumalasini keltirsak, “Biz boshqalarni kamsitish niyatidan yiroqmiz. Ayrim bugungi ayrim saltanatlar ahli qabila-qabila bo‘lib yashagan zamonlarda bizning muborak zaminimizda ilm-u fan barq urib yashnagani tabiiy ilmlar, xususan, tibbiyot, matematika, astronomiya kabi fanlar madrasalarda o‘qitilgani, ilmiy akademiyalar tashkil etilib, Mag‘rib-u Mashriqqa nom taratganini eslasak va bundan har qancha g‘ururlansak arziydi”[17]. Allomalarimizning ijtimoiy hayot, inson kamoloti, davlat boshqaruvi va siyosati, huquq va adolat va shuningdek, odob-axloqqa doir ko‘plab masalalarni o‘z izlanish va tadqiqotlarida yoritganliklari biz uchun mustahkam bilim va ko‘nikmalar poydevori vazifasini o‘tamoqda. Biz bu qimmatli manbaalardan oqilona foydalanishimiz uchun mutafakkirlarimizning hali to‘liq o‘ranilib bo‘linmagan asarlarini chuqurroq tadqiq etishimiz, tahlil etishimiz darkor. Bundan tashqari, davlat boshqaruvi va siyosatida shaffoflik va ochiqlikka, inson huqulari va adolat masalalarida esa xolislikka, xalq manfaatlarini birinchi darajalarda bo‘lishligini ta‘minlashda o‘zimizning buyuk mutafakkir va faylasuflarimizning o‘git va maslahatlari orqali erishishimiz mumkinligini anglashimiz muhim. Buning uchun yoshlarimiz ongida, xalqimizning tafakkurida allomalarimiz va ularning ilmiy





merosiga bo'lgan e'tibor va muhabbatni, qadr-qimmatlilik darajasini yanada yuksaltirishimiz esa kelgusida o'z samarasini bermay qolmaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Elektron manba: <https://darakchi.uz/oz/4498>.
2. Farobiy "Fozil shahar aholisining fikrlari" risolasidan. Risolar. –T.: "Muxlis". 1975. 134-bet
3. O'sha kitob, 134-bet.
4. X. Po'latov, Q. Sulaymonov. Siyosatshunoslikka kirish. - Farg'ona. 1994. 81-bet.
5. Ubaydulla Uvatov. "Buyuk yurt allomalari". –T.: "O'zbekiston" NMIU. 2016. 85-garov.
6. Abu Nasr Forobiy. "Fozil odamlar shahri." –T.: Abdullo Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993 yil. 61-bet.
7. Q. Nazarov. "Falsafa asoslari". O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. –T.: 2012. 73-74-betlar.
8. X. Po'latov, Q. Sulaymonov. Siyosatshunoslikka kirish. - Farg'ona. 1994. 81-bet.
9. Elektron manba: <https://www.bukhari.uz/?p=24641&lang=oz>.
10. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Tom Hinduston. Arabchadan A.Rasulov, Yu.Hakimjonov, G'.Jalolov tarjimasini. So'z boshi va izohlar muallifi A.Irisov. –T.: Fan, 1965 yil.
11. O'sha kitob.
12. Ochilov E. "Barhayot siymolar". –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2012. 139-bet.
13. Abu Mansur as-Saolibiy. "Yatimat-dahr." administrator, tarj. va ko'rsatkichlarni tuzuvchi I. Abdullayev. -T.: "Muxlis." 1976. 230-bet.
14. Ochilov Ergash. "Barhayot siymolar". –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2012. 140-bet.
15. E.Y.Yusupov. "Falsafa" o'quv qo'llanma. –T.: "O'qituvchi" NMIU, 2005. 62-bet.
16. Ibn Sino va "Tadbir-e manzil". Tehron, 1319 xurshidiy, 4-garov.
17. I.A.Karimov. "Bizdan ozod va obod vatan qolsin". Asarlar, 2-jild. -T., "O'zbekiston", 1996. 219-220-betlar.